

NORDIC LIFE | 2024

9 SON

Oktyabr
Noyabr • Dekabr



1

Muloqotlar

Choraklik hisobotlar

2

Muzokaralar

Jarayonlar tahlili

3

Munosabatlar

Muvaffaqiyat omili

NORDIK HAYOTI

NORDIC LIFE

NORDIK HAYOTI/NORDIC LIFE

Xalqaro Nordik universiteti rektori
Sh.Mustafakulov tahriri ostida

Nashrga tayyorlaganlar:
M.Isaqova, R.Shodmonov

Xalqaro Nordik universitetining yana bir chorak – 2024-yilning oktyabr, noyabr, dekabr oylaridagi sermazmun hayoti “Nordic life”ning 9-faslida o‘z aksini topdi.

Ushbu broshyuramizda Nordik universitetining ilmiy yutuqlari, talabalarga sifatli ta’lim berish borasidagi sa’y-harakatlar, universitetimizga nufuzli tashriflar, delegatsiyalarimizning xorijiy davlatlarga ta’lim safarlari va istiqbolli muzokaralar natijalari yoritilgan.

Universitetda va jamiyat miqyosida ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb qilish, yangi avlod adabiyotlarini yaratish, professor-o‘qituvchilarning malakasini oshirish borasidagi qator tashabbuslar ushbu broshyurada jamlangan.



INTILGANGA TOLE YOR!

WHERE THERE'S A WILL, THERE'S A WAY!



KIRISH

"Nordic life"ning navbatdagi 9-fasli orqali Siz, aziz o'quvchilarni oliygohimizning intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, fan, ta'lif va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish yo'lidagi vazifalarini amalga oshirish jarayonlari bilan keng tanishtirishni maqsad qildik.

2024-yilning so'nggi choragida jahondagi nufuzli oliy ta'lif muassasalari ilm-fanning yirik o'choqlari hisoblanishini inobatga olib, yangi xorijiy hamkorliklarga yo'l ochish va ilg'or tajribalarni o'rganish, Nordik vakillarining ta'lif safarlarini tashkillashlar soni ortdi. Universitet rektori Sherzod Mustafakulov Yevropa davlatlari oliy ta'lif tajribalarini o'rganib qaytdi.

Universitetni xabga aylantirish ishlari natijasida esa nufuzli delegatsiyalar tashrifi keskin ortdi. Jumladan, Yevropa Ittifoqi delegatsiyalari, Euronews xalqaro mediatarmog'ining nufuzli delegatsiyalari, Vengriyaning O'zbekistonidagi favqulodda va muxtor elchisi Jozsef Rozsa va Jon fon Neyman universiteti vasiylik kengashi raisi doktor Norbert Csizmadianing Nordik universitetiga tashriflari qiziqarli va samarali o'tdi.

Xalqaro Nordik universiteti O'zbekistonning Ummon sultonligidagi elchixonasi tashabbusi bilan "O'zbekiston - Ummon sultonligi biznes forumi"ga mezbonlik qildi.

Shuningdek, Nordik universitetida jamoada va respublikamiz oliygohlarida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarning xorijdagi oliy ta'lif hamda ilmiy-tadqiqot maskanlarida malaka oshirishi va stajirovka o'tashini ta'minlaydigan mexanizm ijobiyligi natijalar berdi. Nordik talabalarining grantlar, talaba almashish dasturlarida ishtiroki sezilarli kengaydi. Shu va boshqa muhim yangiliklar bilan jurnalimizda batafsil tanishing.

Sherzod Mustafakulov

Xalqaro Nordik universiteti rektori,
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

MUNDARIJA

Kirish	3
1-oktyabr - "O'qituvchi va murabbiylar kuni"!	4
Vengriyaning Jon fon Neyman nomidagi universiteti vakillari bilan uch rashuv bo'lib o'tdi	5
Korrupsiyaga yo'q deymiz!	5
Fin ta'llimi borasida pedagogik tushunchalar chuqurlashtirildi	6
Yangi talabalar uchun o'qishning ilk kuni!	6
Darsdan <input checked="" type="checkbox"/> o'yingacha	7
Monografiyamizdan foydalaning!	7
Yevropa Ittifoqining O'zbekiston dagi delegatsiyasi vakillari Nordik universitetiga tashrif buyurdilar	8
Yaxshi jamoa bu - sovg'a!	8
Adabiyotdan kuch olamiz!	9
"Poytaxt bank" - yangi hamkorimiz!	9
O'zbekistonning Ummon sultonligidagi ishbilarmon-hamkorlari safi kengaymoqda	10
Qozoq milliy pedagogika universiteti bilan hamkorlik o'rnatildi	10
Vengriyalik geograf, TEDx maruzachisi - Nordik universitetida!	11
Magistratura talabalariga katta ishonch bildirildi!	12
Nordik Universiteti vakili Maldiv davlatida bo'ldi	12
Milliy fizika-matematika maktabi (Qozog'iston) bilan hamkorlik o'rnatildi	12
Kareliya universiteti Prezidenti Petri Raivo yurtimizda bo'lib turibdi	13
Nordik yosh tadqiqotchilari - ilmiy izlanishda	14
"Iqtisod" eng yaxshisi!	14
21-oktyabr - O'zbek tili bayrami kuni!	15
Qadring baland bo'lsin, ONA TILIM!	15
"Progress"dan oliy natija!	16
Volontyor-talabalar Nordik jamoasi bilan bir safda!	16
Talabalar kelajagiga daxldor mavzuda suhbat o'tkazildi	17
Universitetga kirish orzusidagilar uchun ayni muddao!	17

MUNDARIJA

Har bir talaba - bir ovoz!

18

Nordik ovozlari - keljak uchun!

18

Yevropa Ittifoqi - Markaziy Osiyo yosh yetakchilari konferensiyasi o'tkazildi

19

Yevropa Ittifoqi - Markaziy Osiyo yosh yetakchilari konferensiyasi o'tkazildi

20

Nordik universiteti - mintaqaviy muloqot maydoniga aylandi!

20

Keljakka asl, toza ong bilan qadam!

21

Nordik universitetining Shvetsariyadagi hamkorlari safi kengayadi

21

Yirik fin kompaniyalari bilan hamkorlik kengayadi

22

Ikki nafar talabgorning himoyasi bo'lib o'tdi

22

Nordik talabasi kumush medal oldi

22

Boku shahrida bo'lib o'tgan COP29 sammiti doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Finlandiya Prezidenti Aleksandr Stubb bilan uchrashuv o'tkazdi

23

Nordik shon-sharaf doskasi asosan talaba-qizlarimiz suratlari bilan to'libdi

23

Yana bir darsligimiz uchun nashr ruxsatnomasi olindi

23

"Euronews" media xoldingi - Nordik Jurnalistika akademiyasining yaqin hamkor

24

"Euronews" nufuzli axborot platformasi vakillari - Nordik talabalari huzurida

24

UARD - Agrobiznes va qishloq taraqqiyoti universiteti (Bolgariya) yangi hamkorimiz

25

Doktorantura, tayanch doktorantura va mustaqil izlanuvchilikka talabgorlar uchun imtihon o'tkazildi

25

Seminar-trening | Maktabgacha ta'limda xalqaro tajribalar

26

Universitetimiz shoirasi ijodi Turkiya antologiyasidan o'r'in oldi

26

Mehnat barometri: kasbiy bandlikni baholash O'zbekistonga qanday naf keltiradi?

26

Universitet Kengashining 4-son yig'ilishi o'tkazildi

27

Nordik universitetida tarixiy noyob ko'rgazma namoyish etilmoqda

27

Nordik yosh dasturchilari saralandi!

28

Adabiy uchrashuv mehmoni - Ahadquli Xolmuhammad

28

Dehli Texnologiya universiteti professori Mohammad Rizvon Nordik faoliyati bilan yaqindan tanishdi

28

MUNDARIJA

Yangi hamkorimiz - Renessans ta'lif universiteti

29

Finlandiyaning ertaknamo manzili - Laplandiyaning bir bo'lagi endi O'zbekistonda!	29
O'quv-seminar] Angliyaning Kembrij shahrida o'quv dasturlari o'rganildi	30
Nordik talabalari uchun Laplandiyada imkoniyat eshkiklari ochilmoqda	30
Asilabonu Hamidova - davlat stipendiyasi sohibasi!	31
Boyovutdagi maktabda Nordik universiteti burchagi ochildi	31
Nordik universitetida e兹gulik, axloqiy g'oyalalar targ'ibotiga asoslangan "Ma'rifat ulashib" loyihasi doirasida navbatdagi adabiy uchrashuv o'tkazildi	32
Ilk sahna asari taqdim etildi!	32
XNU delegatsiyasi Janubiy Koreyaning Seul shahrida o'tkazilayotgan ICLEI Sharqiy Osiyo hisobot sessiyasida ishtirok etishmoqda	33
"Yangi asr avlodni" nashriyotidan yangi asarlar ko'rgazmasi!	33
TasIMO olimpiadasining birinchi bosqichi bo'yicha statistik ma'lumotlar	33
Nordik universiteti faollari "Science and innovation awards-2024" taqdirlash marosimi mehmoni bo'ldilar	34
Nordikda Yangi yil bazmi!	34
Nordikda "Smoothie" viktorinas!	35
Professor-o'qituvchilar uchun seminar-trening haftaligi o'tkazilmoqda	35
XNU doktorant, tayanch doktorant hamda mustaqil izlanuvchilarining ilmiy faoliyati monitoring qilindi	36
"Nordik sekret" sirli sovg'alari ajoyib kayfiyat ulashdi!	36
Sizlar bilan faxrlanamiz!	37
XNU Yevropa Ittifoqi Sertifikati bilan taqdirlandi	37
Nordik universitetida yaratilgan qator dastur, kodeks, nizom va loyihamar intellektual mulk sifatida patentlandi	37

Oktyabr oyi yorqin lahzalar bilan boshlandi!

1-oktyabr - "O'qituvchi va murabbiylar kuni"! | 1-okt. |

Sharafli bayram Nordik universitetining axil oilasida "**Ustoz - shaxs me'mori**" shiori ostida keng nishonlandi.

Jamoaviy bayram barchani yanada birlashtirdi, ustozlar va talabalarning samimiy tabrik va tilaklari tinglandi. Musiqiy va she'riy tuhfalar, tabriknomalar va esdalik sovg'alari, bayram dasturxoni atrofida samimiy suhbatlar barchabarchani xushnud qildi.

Qalblardagi ayyom quvonchi yuzko'zlarda aks etdi. Nordik jamoasi kasb bayramini mehnatlaridan mammun nishonladilar.



Vengriyaning Jon fon Neyman nomidagi universiteti vakillari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi | 3-okt. |



Bu uchrashuv har ikki universitet o'rtaida hamkorlikni kengaytirish bo'yicha olib borilayotgan sa'y-harakatlarning uzviy davomi bo'ldi.

Tez kunlarda Nordik universitetiga aniq fanlar va innovatsiyalarga ixtisoslashgan ushbu universitet Prezidentining tashrifi, talabalar bilan uchrashuvi, qiziqarli ma'reza va taqdimotlari kutilmoqda.

Korrupsiyaga yo'q deymiz! | 9-okt. |

Talabalar ishtirokida "Biz zo'ravonlikka qarshimiz" va "Korrupsiya - taraqqiyot kushandası" mavzularida davra suhbatি o'tkazildi.

Korrupsiyaga yo'q deymiz. Buni talabalar mavzu muhokamasi, taqdimotlar va rasmlarda keng ifoda qilib berdilar.



TABRIKLAYMIZ!

Nordik universitetining Sanoatni boshqarish va raqamli texnologiyalar kafedrasи o'qituvchisi Gulchexra Husanova falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi uchun dissertatsiya ishini yoqladi.

U Buxoro muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi Ilmiy kengashda "Hududlar sanoatini kompleks-innovatsion rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari (Namangan viloyati misolida)" mavzusidagi dissertatsiya ishini munosib yoqladi va OAK rayosati qarori bilan iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini qo'lga kiritdi.

Fin ta'limi borasida pedagogik tushunchalar chuqurlashtirildi | 7-okt.|



Nordik universiteti prorektori **Odil Qo'yasinov** boshchiligidagi delegatsiya Kareliya amaliy fanlar universitetida talabalar uchun zamonaviy va moslashuvchan o'quv xonalarini, laboratoriylar faoliyatini bilan tanishdilar.

Yangi talabalar uchun o'qishning ilk kuni! | 7-okt.|

1-kurs talabalarimizning universitet bilan ilk tanishuvlari bo'lib o'tdi.

"Orientation week" o'quv-tanishtiruv haftaligi tantanali ochildi.

Universitet rahbariyati, ustozlar - Nordik do'stlik oilasi talabalar va ularning ota-onalarini tabrikladilar, qvonchlariga sherik bo'ldilar.

"Nordik taronasasi" ansambl musiqiy chiqishlari bilan kayfiyat ulashdi.

"Students party time" soatlarida universitet bo'ylab sayohat, ko'rgazmalar, "Pizza party" va tanishuvlar talabalar, tyutorlar va ustozlarni birlashtirdi.

Albatta bu qvonchli kunning unutilmas lahzalari fotosuratlarga muhrlandi.



Darsdan → o'yingacha |8-okt.|



Yangi talabalarimiz guruhlarida darslardan o'yinlargacha bo'lgan jarayonlarda ishonch va o'zaro qo'llab-quvvatlash muhiti yaratilyapti.



Bunda Nordik qadriyatlari, akademik tartibga bag'ishlangan va ijtimoiy-psixologik treninglarga zo'r tayyorgarlik bilan shoshayotgan ustozlarimizning hissalari katta!

Topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishni ilk kunlardanoq odat qiling!



Monografiyamizdan foydalaning!|10-okt.|

"Hunarmandchilik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning zamонавија и retrospektiv jihatлари" (Amir Temur davri misolida) nomli yangi monografiya nashr etildi.

Kitobda sivilizatsiya uchun tashlangan qadamlardan biri - hunarmandchiliarning paydo bo'lishi, qo'llab-quvvatlanishi va ahamiyati Amir Temur davri misolida tarixiy manbalar asosida keng sharhlangan.

Zulfiya Hamidova muallifligidagi ushbu ilmiy monografiya tadqiqotchilar, mavzuga qiziquvchi magistrant, doktorant, professor-o'qituvchilar, amaliyotchi mutaxassislar uchun muhim manbadir.



Nordik universitetida "**O'zbekistonda yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda fuqarolik jamiyatni institutlarining ishtiroti**" nomli yangi monografiya tayyorlandi va nashr etildi.

Najmiddin Qodirov muallifligidagi monografiyada shaxs va ijtimoiy-siyosiy institutlarning hamkorligi borasida ijobjiy tajribalar, kamchiliklarni bartaraf etish uchun yechimlar jamlangan.

Professor-o'qituvchilar, talabalar va sohaga qiziquvchilarga tarix fanining ustuvor ilmiy muammolari tahlil etilgan mazkur monografiyadan foydalanishni tavsiya etamiz.

Yevropa Ittifoqining O'zbekistondagi delegatsiyasi vakillari Nordik universitetiga tashrif buyurdilar |9-okt.|

XNU rahbariyati va Yevropa Ittifoqining O'zbekistondagi delegatsiyasi dastur menejeri Jana Kurpisa o'rtaida uchrashuv o'tkazildi.

Uchrashuvda media va jurnalistika sohalarida kadrlar tayyorlash, ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish masalalarida fikr almashildi va hamkorlik yo'nalishlari belgilab olindi.

Oliy ta'lif tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, Xalqaro Nordik universiteti va Prime Education Finland (Finlandiya) ta'lif tashkiloti o'rtaсидаги hamkorlik memorandumi asosida "Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat" yo'nalishi bo'yicha 144 soatga mo'ljallangan qo'shma malaka oshirish kursi tashkil etilgan.



Yaxshi jamoa bu - sovg'a! |9-okt.|



Nordikning jamoaviy muvaffaqiyatlari siri nimadaligini bilasizmi!?

Nordik iste'dodlar va qarashlar birlashgan bir oila! Jamoa oddiy hamkorlikdan qalinroq hamjihatlikka ega.

Dekanat xodimlari ishtirokida qiyinchiliklarni birga yengish, birga o'sishga qaratilgan psixologik trening o'tkazildi.

Treningda "maqsadlar doskasi"da ishonch va hurmat, halol muloqotga tayangan yanada kuchli jamoa bo'lish niyatlari aks etdi.

Bu samimiy jarayon qiziqarli muhit yaratib, ishtirokchilarda bir-birini tushunish, mas'uliyatni anglash va samaraliroq ishslashga intilishni oshirdi.



Adabiyotdan kuch olamiz! |11-okt. |

"Navoiy", "Qutlug' qon", "Quyosh qoraymas", "Oltin vodiyidan shabadalar", "Bolalik" ...

Bu asarlar nomi va muallifi sizga ham tanish. Ayrimlari ko'ngil mulkiga aylangan.

"Nafis chayqaladi bir tup na'matak Yuksakda, shamolning belanchagida..."

Nordik talabalariga bu misralar ham tanish. Bugun "Ma'rifat ulashib" tadbirida jo'rlikda o'qildi.

Nordik ustozlari va talabalari o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishining 35 yilligi arafasida Adiblar xiyobonida "Ma'rifat ulashib" tadbirini o'tkazdilar.

Ulug' adib, shoir, olim, jamoat arbobi Oybek haykali poyiga gul qo'yildi.

Universitet rektori, professor Sherzod Mustafakulov va dotsent, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Sitorabonus Shomurodova Oybek xususida ko'plab yangi ma'lumotlar taqdim etdilar.

Anjuman mehmoni - O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, "Do'stlik" va "Mehnat shuhrati" ordenlari sohibi, iste'dodli noshir Shoyim Bo'tayev talaba-yoshlarni adabiyot, ilm bilan "zirhlanish"ga undadi.

**"Poytaxt bank" - yangi hamkorimiz! |11-okt.|**

Bugun Iqtisodiyot ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun akademik va amaliy jihatdan manfaatli hamkorlikka erishildi.

Xalqaro Nordik universiteti va "Poytaxt bank" AJ rahbariyatlari o'rtasida uchrashuv o'tkazilib, talabalar uchun ishbilarmonlik muhitini yaratish, kasbga tayyorlash va bandliklariga ko'maklashish borasida hamkorlik yo'nalishlari belgilandi.

Shuningdek, bank xodimlarining malakasini oshirish, qo'shma ilmiy loyihalarni amalga oshirishga kelishildi.



O'zbekistonning Ummon sultonligidagi ishbilarmon-hamkorlari safi kengaymoqda |14-okt.|



Xalqaro Nordik universitetida O'zbekistonning Ummon sultonligidagi elchixonasi tashabbusi bilan "**O'zbekiston - Ummon sultonligi biznes forumi**" o'tkazildi.

Forumda Ummon sultonligining O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Vafo Jabr Nosir al-Busaidiy xonim ham ishtirok etdi.

XNU Boshqaruv kengashi raisi Alisher Jo'rayev moderatorligida o'tgan forumda Ummon sultonligi ishbilarmon delegatsiyasiga O'zbekiston va Toshkentning infratuzilmasi, sanoati, foydalanish mumkin bo'lgan resurslari va boshqa qator imkoniyatlari sharhlandi.

Qizg'in muzokaralarda ikki davlat biznes rahbarlari o'z tajribalari, kelajak maqsadlari xususida ma'lumotlar almashdilar va manfaatli hamkorlik takliflarini ilgari surdilar.



Qozoq milliy pedagogika universiteti bilan hamkorlik o'rnatildi |15-okt.|

Nordik universiteti va Qozoq milliy pedagogika universiteti rahbariyatlari o'rtasida muzokara o'tkazildi.

Muzokarada fan, oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi ta'lim sohalarida hamkorlikni kengaytirish masalalariga e'tibor qaratildi. Dolzarb ilmiy mavzularda tadqiqotlar o'tkazishga kelishildi va o'zaro anglashuv memorandumi imzolandi.

Kelgisida Nordik universiteti ilmiy kadrlar tayyorlashda yaqindan yordam beradi. Qozoq tadqiqotchilariga O'zbekiston hamda finlandiyalik professorlar ilmiy rahbarlik qiladilar.



Vengriyalik geograf, TEDx maruzachisi - Nordik universitetida! [15-okt.]



Vengriyaning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi **Jozsef Rozsa** va Jon fon Neyman universiteti vasiylik kengashi raisi doktor **Norbert Csizmadia** Nordik universitetiga tashrif buyurdilar.

Elchi janoblari O'zbekiston-Vengriyaning ikki tomonlama hamkorligidagi yuqori imkoniyat va salohiyatini e'tirof etdi.

Jon fon Neyman universiteti vasiylik kengashi raisi, global iqtisodiy strategiya, geostrategiya, geoijtisodiyot va geosiyosat sohalarida 20 yildan ortiq tajribaga ega tadqiqotchi-ma'ruzachi doktor Norbert Csizmadia universitet professor-o'qituvchilari va talabalariga qiziqarli ma'ruza qildi.

Venger olimi tomonidan keljak uchun formulalar, insoniyatning siyosiy va iqtisodiy kelajagida geografiyaning ahamiyati, samarali turizm, yangi sanoat tarmoqlari bo'yicha ilmiy tahlillarini yetkazdi.

Talabalarga ertangi kunni kashf qilish, keljakni xaritalash va bilimlarni rivojlantirish borasida zarur tavsiyalar berildi.

Uchrashuvda qizg'in savol-javoblar bo'lib o'tdi.

Norbert Csizmadia **"GeoFusion"**, **"GeoVision"** va **"GeoFuture"** kitoblarini Nordik kutibxonasiga tuhfa qildi.

Jon fon Neyman universiteti vasiylik kengashi raisi doktor Norbert Csizmadiaga Nordik universitetining "Faxriy doktori" ilmiy unvoni topshirildi.



Magistratura talabalariga katta ishonch bildirildi! |15-okt.|



Universitet rahbariyati bilan uchrashuvda magistratura bosqichida o'qish boshlayotgan talabalar mahalliy va xalqaro istiqbollar bilan tanishtirildilar.

Talabalarga dissertatsiya ishlarining natijadorligiga ahamiyat berish, o'z rejasiga ega bo'lish, ilmiy maqolalar yozish va chop ettirish tavsiya etildi.

Magistratura talabalarining universitet va yurtimiz nufuzini oshirishga xizmat qiladigan mutaxassis bo'lishlariga katta ishonch bildirildi.

Nordik Universiteti vakili Maldiv davlatida bo'ldi |16-okt.|

XNU Xalqaro aloqalar departamenti mas'uli Navruz Islamov Buyuk Britaniyaning EduTourism loyihasi doirasidagi "**Leaders Fellowship - 2024**" xalqaro anjumanida O'zbekiston Respublikasidan delegat sifatida ishtiroy etdi.

Delegatimiz "Barqaror rivojlanish maqsadlarining jamiyatdagi roli. O'zbekiston misolida natijalar va rejalar" mavzusida nutq so'zladi. Ishtirokchilarni Nordik universitetining faoliyati bilan tanishtirdi.

Navruz Islamov xalqaro anjuman tashkilotchilari tomonidan Sertifikat bilan taqdirlandi.



Milliy fizika-matematika maktabi (Qozog'iston) bilan hamkorlik o'rnatildi |16-okt.|

Nordik universiteti va respublika Milliy fizika-matematika maktabi rahbariyatlari o'rtasida muzokara o'tkazildi.

Hamkorlikda Toshkent xalqaro matematika olimpiadasi (**TasIMO**) va Jautikov xalqaro olimpiadasi (**IZhO**)ni yanada keng qamrovda o'tkazish, yangi iqtidorli ishtirokchi jamoalarni kashf etish masalalariga e'tibor qaratildi.

Memorandum imzolanib, o'zbek va qozoq yosh matematiklariga qobiliyatlarini yuzaga chiqarishda ko'maklashish, jahon olimpiadalarida oltin medalni qo'lga kiritgan matematik-mutaxassislarning master-klasslari, yoshlар uchun yozgi maktablar tashkillash, hakamlar almashish kabi qator hamkorlik yo'nalishlari belgilandi.

Kareliya universiteti Prezidenti Petri Raivo yurtimizda bo'lib turibdi |17-okt.|

Hamkor universitet Prezidenti Petri Raivo Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti qoshidagi Akademik litseyda o'quvchilar bilan uchrashdi.

Foundation qo'shma dasturining imkoniyatlari, Kareliya AFU grantlari, fin ta'lif tizimi haqida suhabat va savol-javoblar o'tkazildi.



Karelia universiteti talabasi, oliygohning dastur koordinatori Otabek Mahmudov Finlandiyada talabalar uchun yaratilgan sharoitlar, xorijiy talabalar duch kelishi mumkin bo'lgan tartiblar bilan bog'liq muammolar va yechimlar, fin tilini o'rganishning ahamiyati haqida o'z hayotiy bilimlari bilan bo'lishdi.

Petri Raivo Nordik universitetiga tashrif buyurdi. Hamkorlik samaralari va kelgusidagi rejalar muhokama qilinmoqda. Amaliy oliy ta'lifni yanada yuksaltirish, akademik, tadqiqot va innovatsion hamkorlikni chuqurlashtirish borasida tajribalar almashilmoqda.



Nordik yosh tadqiqotchilari - ilmiy izlanishda |19-okt.|

Universitet doktorantlari va mustaqil izlanuvchilari uchun ilmiy-uslubiy seminar o'tkazildi.

Tadqiqotchi **Elshod Umarov** yashil iqtisodiyot rivojlanishining ishlab chiqarish resurslariga ta'sirini baholash mexanizmlari, **Ilyosbek Abdug'aniyev** esa sanoat korxonalarida mehnat unumdarligini oshirish istiqbollari masalalarida ilmiy izlanishlar olib boryaptilar.



Ilmiy-uslubiy seminarda monitoring o'tkazildi. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor **Odil Qo'ysinov** tomonidan ilmiy tadqiqot ishlarini sifatli tashkil etish bo'yicha tavsiyalar berildi.

Tadqiqotchilarning ilmiy faoliyat va ilmiy jarayonni boshqarish ko'nikmalari oshirildi.



"Iqtisod" eng yaxshisi! |20-okt.|

Besh tashabbus olimpiadasi sport musobaqalari doirasida futbol bellashuvlari o'tkazilmoqda.

"Nordic boys" va **"Hopeful boys"** ("Umidli yigitlar") jamoalari o'rtaсидagi uchrashuvda omad "Hopeful boys"ga kulib boqdi.

So'ng **"Hopeful boys"** **"Iqtisod"** jamoasi bilan maydonga tushdi va bu o'zin **"Iqtisod"** jamoasi g'alabasi bilan yakunlandi.

"Progress" va **"Biznesmenlar"** o'rtaсидagi bahslarda esa **"Progress"** ustunlikka erishdi. Finalda **"Progress"** va **"Iqtisod"** jamoalari oliy o'rin uchun kurashdilar.



21-oktyabr - O'zbek tili bayrami kuni! |23-okt.|

Ona tili bayramini "Nordik viktorinasi" savol-javoblaridan boshladik!



Qadring baland bo'lsin, ONA TILIM! |21-okt.|" data-bbox="92 517 687 536"/>

Nordik universitetida O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 35 yilligi keng bayram qilindi.

Universitet rektori **Sherzod Mustafakulov** barchani til bayrami bilan tabrikladi. Har bir sohada ona tili sehri bilangina yutuqlarga erishilishini alohida e'tirof etdi.

Bayram tadbiriiga O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zolari, shoirlar taklif etildilar. Jumladan, **Bobur Bobomurod**, **Tursun Ali** talaba-yoshlarni tilimiz barhayotligi va sofligini saqlashda mas'ullilikka chaqirdilar.

Adabiy anjumanda ona tilimiz uchun jon tikkan xalqimizning buyuk farzandlari, metin iroda sohiblari nomlari ehtirom bilan yodga olindi, ular hayotining ibratlari jihatlariga nazar solindi.

Universitetning bo'lajak jurnalistlari she'rlar o'qidilar, musiqa yo'nalishi talabalari kuylar ijro etdilar.

Daryodil ijodkor - estrada qo'shiqchisi, bastakor **Shuhrat Daryo** xalq orasida mashhur qo'shiqlarini ustozlar va talabalar jo'rligida kuyladi. U yangi qo'shig'i premyerasini talabalar davrasida o'tkazdi.



"Progress"dan oliy natija! |21-okt.|

Finalda gollar nisbati 4:1!

"Rektor kubogi" egalari ma'lum bo'ldi. "Progress" jamoasi universitet rektori qo'lidan kubokni katta xursandchilik bilan qabul qilib oldilar!

Musobaqalarda yaxshi o'yin ko'rsatgan "Iqtisodchi" jamoasi 2-o'rin, "Hopeful boys" jamoasi esa 3-o'ringa sazovor bo'ldilar.



Volontyor-talabalar Nordik jamoasi bilan bir safda! |23-okt.|

Universitet missiyalariga erishishda ko'ngilli talabalar o'z yordam va hissalarini qoshadilar.

"Yil yetakchisi" unvoni qanday olinadi?
"Talabalar lideri" qanday tayinlanadi?

Volontyorlikka talabgor talabalar bilan uchrashuvda Nordik dekani shu kabi savollarga javoblar berdi.

- Ma'nnaviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha
- Ilmiy tadbirlar uchun
- Sport ishlari bo'yicha yetakchilar.

Ushbu yo'nalishlarda yetakchilar guruhlari shakllantirildi.

Talabalikda eng foydali ishlardan biri - volontyorlik. Ko'ngillilar safiga qo'shiling!



Talabalar kelajagiga daxldor mavzuda suhbat o'tkazildi |23-okt.|

Axborot almashish tezligi ortib borayotgan vaziyatda yoshlarni begona g'oyalar ta'siridan asrash dolzarbdir.

O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mita mas'ul xodimi Jahongir Meliqo'ziyev bilan talabalar uchrashuvida shu masalaga e'tibor qaratildi.

Talabalar bilan axloqiy ma'rifat, toza tafakkurga ega bo'lish, turli yot mafkuralardan ogoh bo'lish xususida atroflicha suhbat olib borildi.

Yoshlarning jaholat va illatlarning ko'rinishlarini farqlash, yurt tinchligiga daxldorlik bilan o'qish va yashash borasidagi tushunchalari boyitildi.



Universitetga kirish orzusidagilar uchun ayni muddao! |23.okt.|



"SPM school" o'quv markazi fan kurslarini ijobiy natijalarga bitirib, Sertifikat asosida universitetga imtihonsiz kirish mumkin.

Nordik universiteti va "SPM school" o'quv markazi rahbariyatlari o'rtasida o'tgan uchrashuvda o'qishga kirish orzusidagi yoshlarga shu kabi imkoniyatlar haqida so'z bordi.

Memorandum imzolanib, kelgusida xalqaro va milliy tanlovlар, ilmiy tadqiqot loyihalari va grantlarda hamkorlikda ishtirok etishga kelishildi.



Har bir talaba - bir ovoz! |27-okt.|

Parlament saylovi arafasida Nordik talabalari o'rtasida "Men saylovga tayyorman" mavzusida insholar tanlovi o'tkazildi.

Insho yozishga tayyorgarlik jarayonida talabalar saylov va uning o'tkazilishi haqida ma'lumotlarga ega bo'ldilar. Ushbu jarayon o'ziga xos saylovga tayyorgarlik vazifasini o'tadi.



Nordik ovozlari - kelajak uchun! |27-okt.|

Parlament saylovlarida kelajak uchun munosib tanlov qilyapmiz.

Nordik jamoasi ovozlari yanada kuchli va adolatli jamiyat bo'lishga yordam berishiga ishonamiz!



Yevropa Ittifoqi - Markaziy Osiyo yosh yetakchilari konferensiyasi o'tkazildi (30-okt.)



Konferensiya Markaziy Osiyoning 5 ta davlatidan yuqori salohiyatli lider yoshlar, xalqaro ekspertlar, olimlar va talaba-yoshlarni o'zida jamladi.

Konferensiya ochilishida Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili Terhi Hakala, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Tojikiston Respublikalari vazirlari, mutasaddilari ishtirok etishdi.

Barqaror suv harakati paradigmاسини о'зgartирish mavzusiga bag'ishlangan Yevropa Ittifoqi – Markaziy Osiyo yosh yetakchilari konferensiyasi qizg'in o'tdi.

Konferensiya ochilishida Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili Terhi Hakala, Yoshlar ishlari agentligi direktorining birinchi o'rinnbosari Dilnozaxon Kattaxanova, O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri Shavkat Hamroyev, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi Zulfiya Suleymanova (onlayn)nutq so'zladilar.



Yevropa Ittifoqi - Markaziy Osiyo yosh yetakchilari konferensiyasi o'tkazildi |30-okt.|



Mintaqaviy konferensiyada Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar elchilari, YIning Markaziy Osiyodagi delegatsiyalari, BMT va JSST, YXHTning O'zbekistondagi vakillari va yetakchi yoshlari ham ishtirok etdilar.

Suv sohasida Yevropa Ittifoqi - Markaziy Osiyo hamkorligining istiqboli qanday? Bunga qanday erishish mumkin?

Suv xo'jaligi iqtisodiyoti va moliyasi nima?

Nima uchun yoshlar suv xo'jaligiga qiziqishi kerak? Yoshlarning o'rni nimalarda namoyon bo'ladi?

Xalqaro suv xo'jaligi institutining (IWMI) O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari va IWMI Markaziy Osiyo mintaqaviy vakolatxonasi rahbari Barbara Yanush-Pawletta moderatorligida dolzarb savollar doirasida panel sessiya o'tkazildi.



Nordik universiteti - mintaqaviy muloqot maydoniga aylandi! |30-okt.|



Markaziy Osiyoda suv inqirozini hal qilishda yoshlarning roli qanday?

Bugungi konferensiyani kuzatib, bu savolga ijobiy javoblar oldik.

Nordik universitetida davom etgan muloqotda iqlim barqarorligi va suv resurslarini boshqarish bo'yicha harakatlarda yoshlarning ta'sirini kengaytirishga ahamiyat qaratildi.

Suvdan foydalanish samaradorligi, tejamkorlik va suv diplomatiyasi kabi manfaatli mavzular Markaziy Osiyo davlatlaridan jam bo'lgan yosh tаддиқотчиларнинг keng muhokamalariga sabab bo'ldi.



Kelajakka asl, toza ong bilan qadam! |1-noy.|

Ilimga jiddu jahd, nafsga, jaholatga qarshi kurashish, tinchlik-osiyishtalik uchun mas'ullik - bularning barchasi bugun har birimizda bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi **Din ishlari bo'yicha qo'mitaning Axborot xizmati rahbari Ilhom Ma'rupo**v bilan Nordik universitetida o'tkazilgan suhabatda shunday ustuvor jihatlarga e'tibor qaratildi.

Yoshlar xalqparvar, vatanparvar va tinchlikparvar bo'lishga undaldi.

Uchrashuvda Ilhom Ma'rupo soha tahvilchi-eksperti sifatida keng qamrovli ilm va xulosalarini yetkazdi. Universitetning talaba-yoshlari va ustozlari ham ma'ruzachini katta qiziqish bilan tingladilar.

Turli yurtlarda tashqaridan tuzilgan rejalar asosida bo'layotgan urush va boshqa salbiy hodisalar, mafkuralar o'rtasidagi bahs-munozaralar shiddatli tus olgan ayni vaziyatlarda qanday fikrlash, qanday harakatlanish to'g'ri bo'ladi?

Din niqobi ostidagi fitnalardan qanday himoyalanish kerak?

Uchrashuvda ma'ruza ana shunday qizg'in savollar doirasida mazmunli suhabatga aylandi. Barcha yoshlar o'zlarini qiyab turgan ko'plab savollarga javoblar oldilar.



Nordik universitetining Shvetsariyadagi hamkorlari safi kengayadi |1-noy.|

Bugun Shvetsariyaning O'zbekistondagi elchixonasi diplomatik aloqalar departamenti boshlig'i, elchi maslahatchisi Aleksandr Sharer boshchiligidagi vakillar tashrif buyurdilar.

Uchrashuvda janob Sharer va Nordik universiteti rahbariyati keng qamrovli hamkorlik masalalarini ko'rib chiqdilar.

Muhokamalarda noyabr oyida Toshkentda O'zbekiston ishbilarmon doiralarini hamda Shvetsariyaning ta'llim, biznes va boshqa sohalar bo'yicha tashkilot va kompaniyalari vakillari ishtirokida "Shvetsariya kunlari" o'tkazilishi xususida so'z bordi. Xorijiy tashkilotlar rahbariyatlari bilan uchrashuvlar o'tkazish va hamkorlik aloqalarini yo'liga qo'yishga kelishildi.



Yirik fin kompaniyalari bilan hamkorlik kengayadi |4-noy.|



"East office of finnish industries" Finlandianing eng katta aksiyadorlar jamoalarini o'z ichiga olgan tashkilot.

Uning bosh direktori **Janne Harjunpää** Nordik universitetiga Finlandianing Markaziy Osiyodagi favqulodda va muxtor elchisi **Ilkka Raisanen** hamrohligida tashrif buyurdi.

Xalqaro moliya bo'yicha tajribali ekspert Janne Harjunpääni Finlandianing ta'lif va xalqaro loyihalarni rivojlantirish bo'yicha yagona xabi - Nordik universiteti bilan yaqindan tanishayotganidan mamnunligini bildirdi.

Yirik fin kompaniyalari bilan universitet hamkorligini kengaytirish bo'yicha fikr almashildi.

Ikki nafar talabgorning himoyasi bo'lib o'tdi |5-noy.|

Nordik universiteti huzuridagi **PhD.03/29.12.2022.I.157.01 raqamli ilmiy kengashda** navbatdagi himoya ishlari ko'rildi.

Kengashda **Boymurodov Janon Komiljonovich** (Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi) "Sanoat korxonalari innovatsion salohiyatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish" mavzusidagi himoya ishi mohiyati bilan keng tanishtirdi.

Shuningdek, XNU mustaqil izlanuvchisi **Muxamedjanova Kamola Akramovnaning** "Ta'minot zanjirini boshqarish mexanizmini takomillashtirish" mavzusidagi himoya ishi keng muhokama qilindi.

Har ikki nomzod PhD ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya ishlarini munosib yoqladilar.



Nordik talabasi kumush medal oldi |9-may|

Xushnudbek Mo'minov Jahan iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar yo'nalishida ta'lif olish bilan birga atletlik mahoratini oshirib boryapti.

U yoshlar o'rtaida qilichbozlik bo'yicha O'zbekiston kubogi bahslarida qatnashdi.

Xushnudbek O'zbekiston Respublikasi sport vazirligining II darajali diplomi va kumush medalni qo'lga kiritdi.

Tabriklaymiz va omad tilaymiz!



Boku shahrida bo'lib o'tgan COP29 sammiti doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Finlandiya Prezidenti Aleksandr Stubb bilan uchrashuv o'tkazdi (17-noy.).

Janob Stubb 2008-yilda Finlandiya Tashqi ishlar vaziri sifatida mamlakatimizga kelganini esladi.

Prezidentimiz **Shavkat Mirziyoyev** O'zbekiston bugun mutlaqo yangilangani, maktablarimizda fin ta'lif tajribalari keng qo'llanilayotgani, **Nordik universiteti ochilgani, 7500 nafar talabalar ta'lif olayotganini faxr bilan tilga olganida janob Stubb juda quvondi.**

Ko'p qirrali O'zbekiston-Finlandiya hamkorligini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi.

Ta'lif va ekologiya sohasidagi almashinuvlarni mustahkamlash istiqbollariga alohida e'tibor qaratildi. Bo'lajak oliy darajadagi uchrashuvlar rejasi ko'rib chiqildi.



Nordik shon-sharaf doskasi asosan talaba-qizlarimiz suratlari bilan to'libdi (18-noy.).



Yana bir darsligimiz uchun nashr ruxsatnomasi olindi (18-noy.).

Nordik universitetida tayyorlangan **"Innovatsion iqtisodiyot"** darsligi uchun nashr ruxsatnomasi berildi.

Muallif **A.Xashimov** ushbu darsligi uchun O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining Guvohnomasiga ega bo'ldi.

UNI NORDIC
INTERNATIONAL
UNIVERSITY

+998(55)508-44-00
www.nordicuniversity.org

**Nashr ruxsatnomasi
olindi**

"Euronews" media xoldingi - Nordik Jurnalistika akademiyasining yaqin hamkori |20-noy.|



Nordik universiteti **"Uzreport jurnalistika, media va kommunikatsiyalar akademiyasi"** va "Euronews" media xoldingi hamkorligi bo'yicha qizg'in muzokara bo'lib o'tdi.

Muzokarada **"Euronews"** direktorlar kengashi raisi **Pedro Vargas David**, kengashi kotibi **Fernando Soares**, Xalqaro savdo direktori **Kelly Styne**, "Alpac Capital" investitsiyalar guruhining Markaziy va Sharqi Yevropa bo'yicha direktori **Peter Vajay** va guruholi moliyaviy maslahatchisi **Afonso Guerra**, Jurnalistika akademiyasi tashkilotchilari - Xalqaro Nordik universiteti **va "UzReport TV"** rahbariyatlari ishtirok etdilar.

Muzokarada "Euronews" jamoasining maqsad va vazifalari bilan tanishildi. Nufuzli mehmonlarda Jurnalistika akademiyasining rejalarini va ta'lim istiqbollari bilan tanishib, taklif va tavsiyalar berdilar.

Birgalikda jamoaviy loyihalar amalga oshirish, xorijiy ekspert-jurnalistlar ishtirokida **"mahorat darslari"** uyushtirish va stajirovka masalalarida fikr almashildi.



"Euronews" nufuzli axborot platformasi vakillari - Nordik talabalari huzurida |20-noy.|

"Euronews" vakillari va talabalar, ilmiy izlanuvchilar hamda professor-o'qituvchilar or'tasida samimiy muloqot bo'lib o'tdi.

Nufuzli mehmon Pedro Vargas Devidga Nordik universiteti UzReport jurnalistika, media va kommunikatsiyalar akademiyasining "Faxriy professori" ilmiy unvoni taqdim etildi.

Uchrashuv tabrik va qutlovlari, qiziqarli ma'lumotlar almashish va muloqot ruhida o'tdi.

Tashrif so'nggida yuqori martabali mehmon Nordik "Dil izhorlari" kitobida iliq tilaklarini yozib qoldirdi.



UARD - Agrobiznes va qishloq taraqqiyoti universiteti (Bolgariya) yangi hamkorimiz |20-noy.|

Nordik universitetiga **UARD (University of Agribusiness and Rural Development)** rektori maslahatchisi, professor **Valentina Marinova** tashrif buyurdi.

UARD Bolgariyada menejment, iqtisodiyot, turizm va mintaqaviy rivojlanish bo'yicha treninglar, oliy ta'llim malakalari va onlayn ta'llim imkoniyatlarini taklif etuvchi eng yirik universitet.

O'zaro muzokarada har ikki tomon imkoniyatlarini birlashtirish, ilmiy va tadqiqot faoliyati, xalqaro va mintaqaviy loyihalarda hamkorlikni ko'zda tutuvchi Anglashuv memorandumi imzolandi.



Doktorantura, tayanch doktorantura va mustaqil izlanuvchilikka talabgorlar uchun imtihon o'tkazildi |21-noy.|

Imtihon Xalqaro Nordik universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor Sherzod Mustafakulov raisligidagi komissiya tomonidan o'tkazildi.

Kirish imtihonida talabgorlarning mutaxassislikka oid bilimi, innovations yondashuvi va ilmiy salohiyati sinovdan o'tkazildi.



Seminar-trening | Maktabgacha ta'limda xalqaro tajribalar | 21-noy.|



Nordik universitetida 125 nafar maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rahbar kadrlari jamlandilar.

Tajribali professor-o'qituvchilarimiz tomonidan ularning kasbiy mahoratini oshirish, boshqaruvi kompetensiyalarini rivojlantirish, xorijiy mamlakatlar tajribalarini yetkazishga ahamiyat qaratildi.



Universitetimiz shoirasi ijodi Turkiya antalogiyasidan o'rin oldi | 21-noy.|

Poytaxtimizda o'zbek shoiralarining Turkiyada nashr etilgan "Sesin" ("Ovozing") nomli she'riy analogiyasi taqdimoti o'tkazildi.

Dunyoga yuz tutayotgan ushbu to'plamda Nordik universiteti dotsenti, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoira **Sitorabonu Shomurodovaning** she'rlari turkcha tarjimada nashr qilindi.



Mehnat barometri: kasbiy bandlikni baholash O'zbekistonga qanday naf keltiradi? | 24-noy.|



Ishsizlik muammosini hal etishning qanday samarali yo'li bor? Bu boroda qanday xorijiy tajribalar mavjud?

"**Xalq so'zi**" gazetasida Nordik universiteti rektori Sherzod Mustafakulovning "**Tahlil**" ruknida chop etilgan maqolasida shu xususda so'z borgan.

Maqolada yosh mutaxassislarni tayyorlash bilan birga ularga munosib ish o'rinnari yaratish, bu boroda imiy yondashuvlarga asoslanish va xalqaro tajribalardan o'rnak olishning ahamiyati yoritilgan.

Universitet Kengashining 4-son yig'ilishi o'tkazildi |24-noy.|

Unda kun tartibidagi o'ndan ziyod muhim masalalar muhokama qilindi.

Xususan, ta'lif sifatini yanada oshirish, talabalar fikrini o'rganish, ilg'or pedagogik tajribalarni tatbiq etish va dars tahsilini samarali tashkil qilish choralar to'g'risida mas'ullarning hisobotlari tinglandi.

Shuningdek, universitetning xalqaro nufuzini oshirish, talabalarning noakademik hayotini tashkil etish masalalari bo'yicha amalga oshirilgan va oldinda turgan vazifalar keng tahlil qilindi.

Kengash yig'ilishida doktorantura, mustaqil izlanuvchilikka hujjat topshirgan talabgorlarni saralash tanlovini tashkil etish, professor-o'qituvchilarning o'quv adabiyotlarini nashrga tavsiya qilish va boshqa qator muhim ilmiy ishlarning borishi bo'yicha hisobotlar tinglandi.



Nordik universitetida tarixiy noyob ko'rgazma namoyish etilmoqda |27-nov.|



"Osiyo bo'ylab - G'arbdan Sharqqa 1906-1908-yillar Karl Gustaf Mannergeym fotosuratlari" ko'rgazmasi ochildi.

Ochilish tadbirida Finlandiyaning Markaziy Osiyodagi favqulodda va muxtor elchisi Ilkka Raisanen, finlandiyalik yuqori martabali mehmonlar, diplomatik korpus vakillari va ko'plab ixlosmandlar ishtirot etishdi.



Nordik yosh dasturchilari saralandi! |2-dek.|

"Eng yaxshi dasturchi" respublika tanloving universitet bosqichi o'tkazildi.

Ishtirokchilar orasidan eng iqtidorli talabalar saralab olindi:

- 1-o'rinni - Ziyodulla Sodiqov;
- 2-o'rinni - Javohir Yo'ldashov;
- 3-o'rinni - Diyorbek No'monjonov.

↳ Kompyuter injiniringi yo'nalishi talabasi Ziyodulla Sodiqovga respublika bosqichida omad yor bo'lishini tilaymiz!



Adabiy uchrashuv mehmoni - Ahadquli Xolmuhammad |23-may|



Yozuvchi, **"Haqiqiy omad kaliti yoxud savdogarlar ustozi"** va **"Baxt manzili yoxud benazir imom"** kitoblari muallifi Ahadquli Xolmuhammad o'g'li bilan adabiy uchrashuv o'tkazildi.

Talabalar mashhur asar va undagi qahramonlar haqida muallifning o'zidan ma'lumotlar oldilar. Yozuvchi suhbat davomida yoshlarga zarur tavsiyalar berdi.

Dehli Texnologiya universiteti professori Mohammad Rizvon Nordik faoliyatini bilan yaqindan tanishdi |6-dek.|

Qator ilmiy yutuqlar, grantlar egasi, hind olimlari uchun ajratilgan mukofotlar sohibi **Mohammad Rizvon** universitetimizdagi ilmiy-amaliy jarayonlar bilan tanishdi va o'z tajribalari bilan ham bo'lishdi.

Uchrashuvda Scopus va Web of Science ma'lumotlar bazalaridagi jurnallarda hamkorlikda maqolalar chiqarish, ilmiy loyihalar tayyorlash xususida so'z bordi.

Talabalar va professor-o'qituvchilar almashish borasida hamkorlik istiqbollari o'rganildi.



Yangi hamkorimiz - Renessans ta'lif universiteti |17-dek.|

Nordik universiteti va Renessans ta'lif universiteti rahbariyatlari o'rtaida uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda professor-o'qituvchilar, ilmiy xodimlar uchun xorijda stajirovka tashkil etish, akademik faoliyat va amaliy tadqiqotlarda hamkorlikka kelishildi.

Ta'lif jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish kabi qator istiqbolli yo'nalishlarda hamkorlikni ko'zda tutuvchi Memorandum imzolandi.



Finlandiyaning ertaknamo manzili - Laplandiyaning bir bo'lagi endi O'zbekistonda! |11-dek.|



Finlandiya Tashqi ishlar vazirligi, Laplandiya hokimligi, Saipro Group va Xalqaro Nordik universiteti hamkorligida Bo'stonliq tumanida joylashgan Green Hills Resortda Finlyandiya mustaqilligining 107 yilligi munosabati bilan tantanali qabul marosimi o'tkazildi.



Tadbirga diplomatik korpus vakillari, biznes yetakchilari, pedagoglar va madaniyat arboblari yig'ilди.

Tadbirda Finlyandianing O'zbekistondagi elchisi **Ilkka Raisanen**, Laplandiya gubernatori doktor **Hannu Takkula** va "**Хонкараккене LTD**" kompaniyasi prezidenti Marko Saarelainen va boshqa nufuzli mehmonlar ishtirot etdilar.



Green Hills Resortda "**Santa-Klaus Parki**" tantanali ochildi.



O'quv-seminar| Angliyaning Kembrij shahrida o'quv dasturlari o'rzanildi |11-dek.|



O'zbekiston ta'lif delegatsiyasi Kembrij shahrida bo'lib turibdi.

O'quv-seminarda Nordik universiteti prorektori, professor Odil Qo'ysinov ishtiroy etmoqda.

Umumiy o'rta ta'lifning davlat ta'lif standartlari va o'quv dasturlarini ishlab chiqish hamda takomillashtirish maqsadida xorijiy tajribalar keng o'rganilyapti.

Nordik talabalari uchun Laplandiyada imkoniyat eshiklari ochilmoqda |13-dek.|

Nordik universiteti va Laplandiya hamkorligi

Nordik universitetiga Laplandiya gubernatori **dr. Hannu Takkula** va Finlandiya tashqi ishlar vazirligi vakili **Jari Vilen** tashrif buyurdilar.

Nufuzli mehmonlarning talabalar bilan uchrashuvi o'tkazildi.

Fin diplomati va siyosatchisi **Jari Vilen** talabalarga xalqaro reytinglarda eng barqaror, eng baxtli va teng huquqlilar mamlakati - Finlandiyaning tarixi va buguni haqida muhim ma'lumotlar berdi.

Laplandiya meri **Hannu Takkula** talabalarni hududning dunyo va yoshlar uchun keng imkoniyatlari bilan tanishtirdi.

Talabalar Laplandiyada yashash, biznes yuritish, ish va sayohat haqidagi ko'plab savollariga javoblar oldilar.

Tashrif davomida Nordik universiteti rahbariyati va Laplandiya meri Hannu Takula o'rtasida muzokara o'tkazildi.

Muzokara davomida akademik almashinuv dasturlari, qo'shma tadqiqotlar, innovatorlar va yetakchilar avlodini kuchaytirish, talabalar uchun work and travel dasturlari amalga oshirishga qaratilgan **Memorandum** imzolandi.



Asilabonu Hamidova - davlat stipendiyasi sohibasi! |13-dek.|

Biznesni boshqarish yo'nalishi talabasi **Asilabonu Hamidovaga**
Islom Karimov nomli davlat stipendiysi tayinlandi!

Asilabonu maktabni oltin medal bilan tamomlagan. Universitetda ta'lif va ish faoliyatini a'llo darajada olib bormoqda.

Coursera, Udemy platformalarida xalqaro kurslarni ijobjiy yakunlab, ilmini boyitib boryapti. Iqtisodiyot fanlari doktori Xasan Sabirov ilmiy rahbarligida o'z mutaxassisligi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda.

Stipendiat talabamizni muborakbod etamiz!



Boyovutdagi məktəbdə Nordik universiteti burchagi ochıldı |13-dek.|



"Ma'rifat ulashib"

Nordik universitetining ma'rifatchilar guruhi **Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi 50-umumiy o'rta ta'lif maktabida** ma'nnaviy-ma'rifiy tadbir o'tkazdilar.

"Ma'rifat ulashib" loyihasi doirasidagi tadbirda professor-o'qituvchilar, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zolari - **Rahmon Qo'chqor, Sitora Shomurodova** va boshqa bir qator ma'nnaviyatchilar ishtiroy etdilar.

XNU Yoshlar bilan ishslash va ma'nnaviyat ishlari bo'yicha departamenti boshlig'i **Najmiddin Qodirov** o'quvchilarni yurtimizda yoshlar uchun yaratilayotgan sharoitlar, universitet faoliyati va ta'lif imkoniyatlari bilan tanishtirdi.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, adabiyotshunos olim Rahmon Qo'chqor, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori Sitora Shomurodova o'quvchi-yoshlar bilan adabiy suhbat qurdilar. Ular o'z ma'ruzalarida adabiyot namoyandalari va kitobxonlik madaniyatiga e'tibor qaratdilar.

"Nordik taronasi" ansambl ijjodkorlari kuy-qo'shiqlari orqali estetik zavq ulashdilar.

Ta'lif muassasasi kutubxonasida **Xalqaro Nordik universiteti burchagi** ochildi. O'quv jihozlari va kitoblar tuhfa etildi.

Nordik universitetida ezgulik, axloqiy g'oyalar targ'ibotiga asoslangan "Ma'rifat ularshib" loyihasi doirasida navbatdagi adabiy uchrashuv o'tkazildi |16-dek.|

Nordik universiteti rektori **Sherzod Mustafakulov** uchrashuv mehmoni - adabiyotshunos olim, "**Shuhrat**" medali, "**Xalq ta'limi a'lochisi**" unvoni sohibi, qator asarlar va eng yaxshi adabiy ko'rsatuvlardan biri "**Hayrat**"ning muallifi **Rahmon Qo'chqorni** talabalarga tanishtirdi.

Respublikamizning eng yirik ma'naviyat targ'ibotchilaridan biri bo'lgan taniqli olim anjumanda talaba-yoshlarga G'afur Gulom hayoti va ijodining ko'pchilikka ma'lum bo'lмаган noyob qirralari, yurt va xalq qayg'usida yozilgan ammo u yashagan davr taqozosi bilan nashr etilmay qolgan ko'plab satrlaridan namunalar keltirdi.

Anjumanda Abdulla Qodiriy, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov kabi xalqimizning qator ulug' insonlari ijodi va faoliyatiga teran nazar solindi.

Rahmon Qo'chqor adabiy, tarixiy evrilishlar, fikrlash va xalq tafakkurining ahamiyati haqida boy mulohazalarini yoshlarga yetkazdi.

Adabiy uchrashuv talabalarni kitob mutolaasiga yanada yaqinlashtirishda ibrat bo'ladigan fikrlarga boy o'tdi. Zero, ilmli yoshlarga mamlakat taraqqiyotining kafolatidir.



Ilk sahna asari taqdim etildi! |16-dek.|

Talabalar teatr studiyasi

Nordikning ijodkor talabalari "**Qadam**" sahna asarini namoyish etdilar.

Talabalikda kelajak uchun aniq maqsad qo'yib, ilm olish bilan barchaga kerakli inson, yaxshi mutaxassis bo'lish mumkin.

Aksincha, talabalikni davomat uchungina kelib-ketib, yengil-yelpi, besamar o'tkazib yuborish ham mumkin...

Spektaklda ayrim bemaqsad "talaba"larning turli illatlar ta'siriga tushib qolishi mumkinligi aks ettirildi va yoshlar ogohlilikka chaqirildi.

Yakunda spektakl ustozlar tomonidan baholandi, aktyor-talabalarning kamchilik va yutuqlari aytib o'tildi.



XNU delegatsiyasi Janubiy Koreyaning Seul shahrida o'tkazilayotgan ICLEI Sharqiy Osiyo hisobot sessiyasida ishtirok etishmoqda |17-dek.|

Xalqaro hamkorlik

ICLEI xalqaro tashkiloti va Seul shahar hokimligi bilan hamkorlikda **"Capacity building Program"** (Salohiyatni oshirish dasturi) doirasida o'tkazilayotgan sessiyada kelajakda hamkorlik uchun muhim sohalar aniqlab olinmoqda.

Muzokaralarda Seulning Uglevodsiz yashil o'sish va barqaror rivojlanish bo'yicha rejalar bilan tanishilib, keng muhokama etildi. Shuningdek, O'zbekiston shaharlarining uglerod neytralligi borasidagi muammolarini hal qilish masalasiga e'tibor qaratilmoqda.

Sessiya doirasida mahalliy iqlim bo'yicha harakatlarni kuchaytirish, potensial sohalar va ularda faoliyatni yanada chuqurlashtirish kabi dastur bilan bog'liq mavzularda muhokamalar o'tkazilyapti.



"Yangi asr avlodii" nashriyotidan yangi asarlar ko'rgazmasi! |18-dek.|



Nordik universitetida **"Ma'rifat ularshib"** loyihasi doirasida kitoblar ko'rgazmasi tashkil etildi.


"Yangi asr" nashriyoti tomonidan tashkillangan ko'rgazmadan badiiy, tarixiy, siyosiy, psixologik va biznes motivatsiya xususiyatiga ega asarlar hamda bolalar adabiyotlari o'rinn oldi.

Ko'rgazma talaba-yoshlar va ustozlarni kitob mutolaasiga yanada yaqinlashtirishga xizmat qildi.

TasIMO olimpiadasining birinchi bosqichi bo'yicha statistik ma'lumotlar

Ikkinchi bosqichga tavsiya etilganlar soni bo'yicha hududlar kesimida birinchi o'rinn Namangan viloyatiga to'g'ri keldi.

Eng ko'p ishtirokchilar 3-sinflar kesimida qayd etildi. Ikkinchi bosqichga tavsiya etilganlarning eng ko'pini 4-sinf o'quvchilari tashkil etdi.



Nordik universiteti faollari "Science and innovation awards-2024" taqdirlash marosimi mehmoni bo'ldilar |21-dek.|

"Turkiston" san'at saroyida o'tkazilgan "Olimlar bayrami"da yurtimiz olimlari jamlandilar. Bayramda "O'zbekistonning taniqli olimlari" ensiklopediyasining taqdimoti o'tkazildi.

Quvonchlisi, Nordik universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori **Sherzod Mustafakulov** hamda Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, professor **Odil Qo'ssinoval** mehnat yo'lli va ilmiy faoliyatlarini ensiklopediya sahifalarida yoritildi.

Ilmiy va innovatsion tadqiqotlar departamenti boshlig'i Farhod Irisqulov haqidagi maqola esa "**Mening muvaffaqiyatlari yo'llim**" biografik ensiklopediyasidan joy oldi.

Anjumanda katta konsert dasturi tomosha qilindi. Olimlarning muvaffaqiyatlari keng nishonlandi.



Nordikda Yangi yil bazmi! |21-dek.|

Ustozlar va talabalar ishtirokida sevimli bayram o'zgacha nishonlandi.

Bayram tadbiri zavqli va qiziqarli o'yinlar, kuy-qo'shiqlar, go'zal raqslar, kutilмаган sovg'alar bilan esda qolarli o'tdi.

Bayram shukuhini Nordik bilan his eting!



Nordikda "Smoothie" viktorinasi! |24-dek.|

Xorijiy til bilimdonlari ishtirokida semester davomida sevib o'qilgan kitoblar asosida viktorina o'tkazildi.

3 turdan iborat qiziqarli bellashuvda rasmlar va savol-javoblar bilan ishtirokchilarning bilimlari sinaldi. Ingliz tilida qo'shiqlar kuylandi, sahna ko'rinishlari namoyish qilindi.

Xorijiy til va adabiyoti kafedrasi mudiri Dilshod Nasriddinov boshchiligidagi hakamlar jamoalarni baholab bordilar.

Viktorina faollari Sertifikat va bayram sovg'alar bilan taqdirlандilar.



Professor-o'qituvchilar uchun seminar-trening haftaligi o'tkazilmoqda |24-dek.|

Nordik universitetida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, foydali ta'lim dasturlari va metodlar bo'yicha ilm hamda malakalarni rivojlantirish maqsadida seminar-treninglar tashkillanmoqda.

Unda barcha professor-o'qituvchilar, prorektorlar, kafedralar mudirlari, departamentlar rahbarlari va ilmiy xodimlar ishtirok etishmoqda.

Treningda prorektorlar tomonidan yangi o'quv yiliga tayyorgarlik, ta'lim-fan-ishlab chiqarish integratsiyasi, ilmiy tadqiqotlar va ularni faollashtirish yo'llari keng muhokama etilib, zarur tavsiyalar berildi.



XNU doktorant, tayanch doktorant hamda mustaqil izlanuvchilarining ilmiy faoliyati monitoring qilindi |26-dek.|

Xalqaro Nordik universitetida ilmiy izlanish olib borayotgan doktorant, tayanch doktorant hamda mustaqil izlanuvchilarning faoliyati samaradorligini baholash bo'yicha monitoring o'tkazildi.

Monitoring doirasida tadqiqotchilarning o'z ish rejalarini asosida yil davomida amalga oshirgan ishlari ko'rib chiqildi.

Jumladan, ish reja va metodologik dasturlari, kurslardagi ishtiroki va sifat sertifikatlari, dissertatsiya ishlaringin bajarilishi, OAK ro'yxatiga kiritilgan ilmiy jurnallar hamda Scopus tizimining davriy nashrlarida chop etilgan maqolalari kabi tegishli mezonlar bo'yicha hisobotlari tinglandi va baholandi.

Tajribali olimlar va mutaxassislardan iborat monitoring komissiyasi a'zolari tomonidan tadqiqotchilarga dissertatsiya ishini sifatli bajarish, shaxsiy ish rejalarini samarali amalga oshirish yuzasidan yo'nalish va maslahatlar berildi.



"Nordik sekret" sirli sovg'alari ajoyib kayfiyat ularashdi! |28-dek.|

Yangi yil bayramiga bag'ishlangan anjumanda bir-biridan sir tutilgan holda hozirlangan sovg'alar o'z egalariga topshirildi!

Tobora yaqinlashib kelayotgan yangi yil barchaga muborak bo'lsin!



Sizlar bilan faxrlanamiz!



"O'zbekistonning tanqli olimlari olimlari ensiklopediyasi"ning 2024-yilgi to'plami nashr qilindi.

To'plamda Xalqaro Nordik universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor Sherzod Mustafakulovning samarali ilmiy faoliyati, respublikamiz ta'lim tizimi rivojiga qo'shayotgan hissalarini o'z ifodasini topgan.

Shuningdek, Akademik ishlar bo'yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor Makhmadsidik Amonboyevning ilmiy faoliyat yo'llari ham yoritilganligi quvonarlidir.

XNU Yevropa Ittifoqi Sertifikati bilan taqdirlandi

Yevropa Ittifoqi va Xalqaro Nordik universiteti hamkorligida nufuzli mintaqaviy konferensiyaga katta tayyorgarlik ko'rildi.

Konferensiya oldidan "**Xalq so'zi**", "**Народное слово**", "**Ishonch**" kabi qator gazetalar, saytlarda xabar va maqolalar nashr etildi.

Nordik universiteti rektori Sherzod Mustafakulovning "Xalq so'zi"da nashr etilgan "Yevropa Ittifoqi - Markaziy Osiyo yosh yetakchilari konferensiyasi: o'zaro hamkorlik va birdamlikni mustahkamlashda yangi odimlar" maqolasida xalqaro anjumandan kutilayotgan natijalar haqida so'z borgan.



Nordik universitetida yaratilgan qator dastur, kodeks, nizom va loyihibar intellektual mulk sifatida patentlandi



Adliya vazirligi huzuridagi "**Intellektual mulk markazi**" tomonidan mualliflarimizga Guvohnomalar taqdim etildi.



Xalqaro Nordik universiteti missiyasi – zamonaviy bilimlarni berish orqali talabalarni mehnat bozoriga tayyorlash, ularni raqobatbardosh mutaxassis bo'lib yetishishini ta'minlash, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish orqali jamiyat muammolarini yechishga ko'maklashish, xalqaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash va globallashuv sharoitida ta'lif eksportini oshirishdan iborat!



@nordic_edu



www.nordicuniversity.org